

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

MAQSUD SHAYXZODA

HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH BO‘YICHA

Dastur va uslubiy qo‘llanma

Toshkent – 2020

Mazkur dastur va uslubiy qo‘llanma shoir, yozuvchi Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodini oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitish uchun ishlab chiqildi.

Dasturda shoir, yozuvchi Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodining barcha jabhalari qamrab olindi, adibning hayoti va faoliyatiga doir ma‘lumotlar aniq manbalar asosida yoritib berildi. Shuningdek, Maqsud Shayxzoda ilgari surgan g‘oyalarni talaba-yoshlarga sodda va tushunarli qilib yetkazish maqsadida adabiyotshunoslikning asosiy nuqtalariga murojaat qilinib, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, milliy istiqlol g‘oyasi bilan hamohang jihatlarini singdirishga harakat qilindi.

Mazkur dastur va uslubiy qo‘llanma Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodini o‘rganish yuzasidan o‘quv mashg‘ulotlarini olib boruvchi oliy ta‘lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Mas‘ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori,
professor

Tuzuvchi:

Ruxsora Tulaboyeva,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)

Taqrizchi:

Sulton Normamatov,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Mazkur uslubiy qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2020-yil 21-avgustdagi 1-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

I. KIRISH

Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodini o‘qitish bo‘yicha dastur oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan. Unda mazkur kusning maqsadi, vazifalari va mazmuni ifodalangan bo‘lib, Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi, siyosiy-ijtimoiy faoliyati, publitsistik mahorati, tarjimashunoslik sohasida amalga oshirgan ishlari yoritilgan. Ularni singdirish dasturda belgilangan mavzular bo‘yicha o‘tiladigan turkum mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi.

II. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING MAQSADI

Talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug‘ ajdodlarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish, shoir hayoti va ijodini o‘rganishning zaruriyatini tushuntirish, o‘zbek adib va shoirlarining milliy g‘oya targ‘ibotidagi o‘rnini birgina shoir faoliyati misolida ochib berish, shoirning bugungi milliy ma’naviyatimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o‘rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.

III. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING VAZIFALARI

- XX asr o‘zbek adabiyotidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda Maqsud Shayxzodaning tutgan o‘rni va mavqeyini ochib berish;
- shoir hayoti va ijodiga doir muhim ma’lumotlarni dalillar asosida xolisona yoritib berish;
- shoirning publitsistika, matbaa ishlaridagi faoliyatini atroflicha ochib berish;
- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotga boshlash yo‘lida shoir faoliyatidan, asarlaridan foydalanishni targ‘ib etish;
- Maqsud Shayxzoda hayot yo‘li va faoliyati asosi bo‘lgan fidoyilik, ma’rifatparvarlik, erkparvarlik, to‘g‘riso‘zlik, adolatlilik kabi fazilatlarining ma’navi-axloqiy mohiyati va bugungi kun yoshlari kamolotidagi ahamiyatini tushuntirish;
- Maqsud Shayxzoda shoir sifatida yaratgan ijod mahsullari – “Mayakovskiy va o‘zbek sovet adabiyoti”, “Shayx Ilyos Nizomiy Ganjaviy” yoki Alisher Navoiyning poetik mahorati hamda qisman Sharq she’riy texnikasiga bag‘ishlangan turkum maqolalari, “Qalam va burch”, “She’riyatimizning yo‘li va yangi kuylari haqida”gi tadqiqotlari, tarjimalari, tanqidiy maqolalari mohiyatini, ma’no-mazmunini, g‘oyaviy maqsadlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqib tahlil qilish.

IV. FAKULTATIV O‘QUV KURSINI O‘ZLASHTIRISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

– O‘zbek she‘riyati, nasri, sahna asarlari, xususan, Maqsd Shayxzoda faoliyatining bugungi milliy mafkuramiz bilan hamohang jihatlarini anglab yetishlari;

– Shoir hayoti va ijodi yuzasidn ma‘lumotga ega bo‘lishlari, o‘zlashtirilgan bilimlarni to‘g‘ri mushohada eta olishlari;

– Shoirning publitsistik faoliyati, jumladan, ijtimoiy-siyosiy, ma‘rifiy mavzudagi maqolalari bilan tanishish, ularda aks ettirilgah g‘oyalarni talqin qila olishlari;

– Shoirning dramaturg sifatidagi qiyofasini ko‘rsatuvchi “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi, tarjima asarlarini o‘rganish;

– Maqsd Shayxzoda tarjimalari, xususan, A.S.Pushkinning “Motsart va Salyeri” pyesasini, “Mis chavandoz” dostonini, M.Y.Lermontov va N.A.Nekrasov she‘rlarini, V.V.Mayakovskiy dostonlarini, Shota Rustaveli, Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Shekspir, Bayron, Gyote, Esxil, Ezop asarlari haqida tasavvurga ega bo‘lishlari.

V. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Fakultativ o‘quv kursi – “O‘zbek adabiy tanqidi”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “Badiiy tahlil asoslari”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Madaniyatshunoslik”, “Milliy matbuot”, “Siyosatshunoslik”, “Milliy g‘oya va mafkura” va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.

VI. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING HAJMI VA MAZMUNI

Fakultativ o‘quv kursining hajmi:

№	Mashg‘ulot turi	Ajratilgan soat
1	Ma‘ruza	8
2	Muloqot	4
3	Munozara	4
4	Taqdimot	4
	JAMI:	20

Mashg'ulotlarning mavzulari, mazmuni, kutiladigan natija va ularga ajratilgan soatlarning miqdori:

	Mavzular	Mazmuni	Kutiladigan natija	soat
MA'RUZALAR				8
1	Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi	Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi, u yashagan davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida ma'lumot beriladi. Shoir ijodini o'rganishning ahamiyati tushuntiriladi. Shoir dunyoqarashi kengayishida muhim ta'sir ko'rsatgan omillar izohlanadi.	Badiiy adabiyot mazmuni haqida shoir hayoti va ijodi misolida tushuncha hosil qiladilar, XX asrdagi davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Ijodkor dunyoqarashi kengayishida muhim ta'sir ko'rsatgan omillar haqida xulosa chiqarish ko'nikmalari hosil bo'ladi.	2
2	Maqsud Shayxzodaning ilk ijod namunalari	Maqsud Shayxzoda ijodining ilk namunalari tahlil qilinadi, o'zbek adabiyotida shoirning roli yoritib beriladi. Uning pedagoglik faoliyati, asarlari haqida ma'lumot beriladi.	XX asr o'zbek adabiyotida Maqsud Shayxzodaning tutgan o'rni, uning o'zbek she'riyatiga qo'shgan hissasi kabi masalalarni anglab yetadilar	2
3	20-yillarning oxirlarida Maqsud Shayxzoda hayotida ijtimoiy-siyosiy holatning tutgan o'rni	Davr ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarining har bir ijodkor hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatishi, xususan, ijtimoiy-siyosiy tuzum Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodida o'z o'rniga ega bo'lgani tahlil qilinadi.	Shoir hayotida ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning o'rni va shoir ijodiga ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning ta'siri haqida tushunchaga ega bo'ladilar.	2
4	Maqsud Shayxzodaning she'riy to'plamlari	Shayxzodaning "Loyiq soqchi" (1932), "O'n she'r", "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934), "Jumhuriyat" (1935), "O'n ikki", "Yangi	Maqsud Shayxzoda she'riy to'plamlaridagi siyosiy-ijtimoiy qarashlar, shoirning siyosiy jarayonlardagi tutgan o'rni, shoirning ma'naviy, tanqidiy	2

		devon” (1937), “Saylov qo‘shiq-lari” (1938) she’riy to‘plamlari o‘rganiladi.	qarashlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan baholash ko‘nikma-siga ega bo‘ladilar.	
SUHBAT-MULOQOTLAR				4
1	30-yillarda Shayxzodaning ijodiy faoliyati	30-yillarga kelib, Shayxzoda shoirlik g‘oyat murakkab va mas’uliyatli san’at ekanini ang-lay boshlaydi. Shoir bu yumush iste’doddan tashqari mashaqqatli mehnat, chuqur bilim, faqat timsollar orqali fikrlash emas, mutafak-kir kabi umumlashtirish qobiliyatini ham talab etishiga amin bo‘lgani kabi jihatlar tahlil qilinadi.	30-yillarda Shayxzoda she’rlarida tavsifiylik va bayonchilikdan qochib, oddiy inson obrazini yaratishga, uning turfa xil tuyg‘ularini, hislarini ifodalashga, ma’naviy dunyosini ochishga e’tiborini kuchaytiradi. Istiq-lol g‘oyalarini keng yoyishda shoirning xizmatlari to‘g‘-risida yangi bilimlarga ega bo‘lishadi.	2
2	Ikkinchi jahon urushi davrida Shayxzoda ijodi	Ikkinchi jahon urushi Shayxzoda uchun og‘ir sinov yillari bo‘ldi. Urushning dastlabki kunlaridanoq u butun ijodiy quvvatini, bilimi-ni, tuyg‘ularini dushman ustidan g‘alabani tez-lashtirish maqsadiga yo‘naltirgani xususida bayon etiladi.	Shayxzoda harbiy lirikasining muhim xislati shundaki, u teran jangovarlik kasb etdi, notiqlik ohanglari bilan boyigani, she’r-larida shoir bevosita xalqqa murojaat etishi va uni safarbarlikka undashi, qalbida jo‘sh urayotgan hislarga katta yo‘l ochgani hamda hayqiriqlarga keng o‘rin bergani to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishadi.	2
MUNOZARALAR				4
1	“Toshkentnoma” dostoni	Shoirning “Toshkent-noma” nomli dostonida (1958) Shayxzoda ijodi uchun birlamchi ahami-yatga molik masala – Vatanni ozod ko‘rish masalasi katta ehtiros	Vatanni ozod ko‘rish masalasi Shayxzoda ijodining eng yetakchi fazilatini anglashimiz-ga imkon berishidan tashqari, uning yurti-mizdagi milliy istiq-lol	2

		bilan ifodalangan”ini yaqqol ko‘rish mumkin. Bunday umumlashma Shayxzoda ijodining eng yetakchi fazilatini anglashimizga imkon berishidan tashqari, uning yurtimizdagi milliy istiqlol zamoniga ruhan juda yaqin shoir bo‘lganligini ham yaqqol isbotlashi tahlil qilinadi.	zamoniga ruhan juda yaqin shoir bo‘lganligini ham yaqqol isbotlashi haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.	
2	“Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi	Ijodining yetuklik davrida, aniqrog‘i, 60-yillarda Shayxzoda o‘zining eng yirik asari bo‘lmish “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasini yaratadi. Unda Amir Temurning mashhur nabirasi Mirzo Ulug‘bek hayotining so‘nggi yillari jonlantirilgan bo‘lib, mana shu buyuk olim va fojiali taqdir egasi hisoblangan shohning siymosi, kurashlari, iztirobga to‘liq ruhiy kechinmalari, olamshumul fikrlari ta’sirchan manzaralarda, ziddiyatlarda, urushlar girdobida, shekspirona bo‘yoqlarda gavdalan-tirilgani tushuntiriladi.	Shayxzoda asarga asos qilib Ulug‘bekning so‘nggi ikki yillik hayoti va faoliyatini tanlab oladi, talabalar dramaturg bizni sulton saroyiga, gavjum bozorlarga boshlagani, madrasalar hayoti bilan tanish-tirgani, birinchi navbatda Ulug‘bekning mutafakkir va olimlik xislatlarini ochishga, inson va olam haqidagi o‘ylarini ifodalashga intilgini haqida xulosaga ega bo‘ladi.	2
TAQDIMOT				4
1	Shayxzodaning tanqidchilik va adabiyotshunoslik faoliyati	Shayxzoda tanqid va adabiyotshunoslik bilan ham shug‘ullandi. U 1948 yilda “Alisher Navoiyning lirik qahramoni” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, ulug‘ o‘zbek	Shayxzodaning Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G‘afur G‘ulom va boshqa adiblar ijodi haqidagi tadqiqotlari ham katta ilmiy qiymatga ega ekanligi, shoir asarlari xususida	2

		shoiri ijodiga oid ko'plab ilmiy asarlar e'lon qilgani haqida ma'lumot beradi.	o'z bilimlarini oshirib boradilar.	
2	Maqsud Shayxzoda – mutarjim	Maqsud Shayxzodaning tarjimon sifatidagi faoliyati yoritib beriladi. M.Shayxzoda ilm va matbuotning, o'zbek tanqidi taraqqiyotining Vatan va xalq ijtimoiy-ma'naviy hayotida tutgan o'rnini tadqiq qilish bilan kifoyalanmay, adabiyot va san'atga katta e'tibor qaratgani to'g'risida fikr-mulohazalar bildiriladi. U o'z tarjima asarlari bilan soha rivojiga munosib hissa qo'shgani asoslab beriladi.	Maqsud Shayxzoda tarjimalari badiiyati, g'oyaviy maqsadi, mutarjimning jahon adabiyoti namunalariga bo'lgan qiziqishi, zamonaviy adabiyotga xos muammolarga o'zbek ziyolilarini jalb etishni maqsad qilganini anglab yetadi.	2

VII. “MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH” KURSINI O‘QITISHNING O‘QUV-USLUBIY TA‘MINOTI

“MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH” KURSINING SILLABUSI

Fanning qisqacha tavsifi			
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti		
Kafedra:	Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon		
Ta'lim sohasi va yo'nalishi:	O'zbek filologiyasi fakulteti		
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:	Ruxsora Tulaboyeva. Kafedra o'qituvchisi	e-mail: binafsha-84@mail.ru	

Dars vaqti va joyi:		Kursning davomiyligi:			
Individual grafik asosida ishlash vaqti:					
Fanga ajratilgan Soatlar	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta'lim:	30
	Ma'ruza:	8	Seminar		
Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (prerekvizitlari):	Fakultativ o'quv kursi – "O'zbek adabiy tanqidi", "O'zbek adabiyoti tarixi", "Pedagogika", "Tarix", "Madaniyatshunoslik", "Milliy matbuot", "Siyosatshunoslik", "Milliy g'oya va mafkura" va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro aloqador hisoblanadi.				
Fanning mazmuni					
Kursning maqsad va vazifasi:	<p style="text-align: center;">Fanning asosiy maqsadi – Talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug' ajdodlarimiz bosib o'tgan hayot yo'lini o'rnak sifatida ko'rsatish, Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodini o'rganishning zaruriyatini tushuntirish, o'zbek shoirlarining milliy adabiyot rivojidadagi o'rnini birgina shoir faoliyati misolida ochib berish, shoir va mutarjimning bugungi milliy ma'naviyatimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o'rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.</p> <p style="text-align: center;">Fanning vazifasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> – XX asr o'zbek adabiyotida Maqsud Shayxzodaning tutgan o'rnini va mavqeyini ochib berish; – Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodiga doir muhim ma'lumotlarni tarixiy dalillar asosida xolisona yoritib berish; – Maqsud Shayxzodaning maorif, publitsistika, matbaa ishlari, tarjimashunoslikdagi faoliyatini atroflicha ochib berish; – bugungi istiqbolning kurtagi Maqsud Shayxzoda kabi iste'dodli, ma'rifatparvar ajdodlarimiz ko'ksida nish urib yetilganligiga e'tiborni qaratish; – yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotga boshlash yo'lida shoir faoliyatidan, asarlaridan foydalanishni targ'ib etish; – Shoir hayot yo'li va faoliyati asosi bo'lgan mardlik, fidoyilik, ma'rifatparvarlik, erkparvarlik, to'g'riso'zlik, adolatlilik kabi fazilatlarining ma'navi-axloqiy mohiyati va bugungi kun yoshlari kamolotidagi ahamiyatini tushuntirish; – Maqsud Shayxzodaning adabiyotshunos olim sifatida yaratgan "Alisher Navoiyning lirik qahramoni", "Navoiyning badiiy uslubi haqida" kabi asarlari, tarjimalari, tanqidiy maqolalari mohiyatini, ma'no-mazmunini, g'oyaviy maqsadlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqib tahlil 				

	qilish.
Talabalar uchun talablar	<p>Fakultativ kursni o‘zlashtirish jarayonida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> – o‘zbek she‘riyati namoyandalari; – Maqsud Shayxzodaning hayoti va faoliyati; – Maqsud Shayxzoda ijodi, xususan, XX asr o‘zbek she‘riyatining shakllanishiga xos xususiyatlar haqida tasavvurga ega bo‘lishi; – Maqsud Shayxzoda ijodi qirralari; – davr ruhining adabiyotda aks etishi; – Maqsud Shayxzoda hayot yo‘li; – Maqsud Shayxzoda ijodi; – tanqidchilikning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini tushuntira bilish; – adabiyotda falsafiylik, ijtimoiy-siyosiylik kategoriyalari haqida tushunchaga ega bo‘lish; – o‘zbek shoirlari hayoti va ijodining o‘rganilish darajasini tahlil qila olish; – adabiyotning ijtimoiy mohiyatini tushuntira bilish; – adabiyotning rivojlanishiga sabab omillarni izohlay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Sillabus taqvim:
O‘tiladigan mavzular ro‘yxati:

№	Mavzular	Ma’ruza	Suhbat-muloqot	Munozara	Taqdimot
1	Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi	2 soat			
2	Maqsud Shayxzodaning ilk ijod namunalari	2 soat			
3	20-yillarning oxirlarida Maqsud Shayxzoda hayotida ijtimoiy-siyosiy holatning tutgan o‘rni	2 soat			
4	Maqsud Shayxzodaning she‘riy to‘plamlari	2 soat			
5	30-yillarda Shayxzodaning ijodiy faoliyati		2 soat		
6	Ikkinchi jahon urushi davrida Shayxzoda ijodi		2 soat		
7	“Toshkentnoma” dostoni			2 soat	
8	“Mirzo Ulug‘bek”			2 soat	

	tragediyasi				
9	Shayxzodaning tanqidchilik va adabiyotshunoslik faoliyati				2 soat
10	Maqsud Shayxzoda – mutarjim				2 soat
Jami		8 soat	4 soat	4 soat	4 soat
Asosiy adabiyotlar:		1. Asarlar. Olti tomlik. T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1969-1973. 2. Karimov N. Maqsud Shayxzoda. Ma'rifiy-biografik roman. T., "Sharq" NMAK, 2010			
Qo'shimcha adabiyotlar:		1. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1969. 2. Olimjonova H. Fikr tog'lari. T., "O'zbekiston", 1968. 3. G'afurov I. O'rtoq shoir. T., "Yosh gvardiya", 1975. 4. Abdullaev O. She'riyatning tiniq osmoni. T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1979. 5. Sharafiddinov O. Maqsud Shayxzoda. "Birinchi mo'jiza". T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1979. 6. Maqsud Shayxzoda zamondoshlar xotirasida. Maqolalar to'plami. T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1978. 7. Adabiyot – hayot darsligi. T., Adabiyot va san'at. 1980. 8. Rasulov A. Maqsud Shayxzoda. T., 1980. 9. Rasulov A. Iste'dod va e'tiqod. T., 2000. 10. Rasulov A. Betakror o'zlik. T., 2009. 11. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti. T., 2020.			
Fan dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti		1. www.ziyonet.uz 2. www.e-tarix.uz 3. www.ziyouz.com			

**“MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH” KURSINI
O‘QITISHNING MA‘RUZA TEXNOLOGIYASI**

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Muammoli ma‘ruza
Ma‘ruza mashg‘ulotining rejasi	
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: XX asr o‘zbek adabiyoti namoyandasi hisoblanmish Masud Shayxzoda ijodining barcha qirralari, xususan, she‘riyat, dostonchilik, dramaturgiya, tarjimonlik, adabiyotshunoslik yo‘nalishlarida qilgan ijod maxsulini o‘rganish, tadqiq qilish to‘g‘risida tushuncha berishdan iborat.	
Pedagogik vazifalar: – o‘zbek adabiyotidagi yangilanish bilan bog‘liq jarayonlarni tanishtirish; – o‘zbek she‘riyatida Maqsud Shayxzodaning tutgan o‘rni borasidagi qarashlar bilan tanishtirish; – Maqsud Shayxzoda ijodining o‘ziga xosligi, turli qirralarini ko‘rsatib berish.	O‘quv faoliyatining natijalari. <i>Talaba:</i> – XX asr o‘zbek adabiyotining o‘ziga xosligi masalasiga tavsif beradi; – adabiyotshunoslik hodisalarining mohiyatini aytib beradi va izohlaydi; – Maqsud Shayxzoda ijodining o‘ziga xosligini uning she‘rlari misolida tahlil qilib, ko‘rsatib beradi.
O‘qitish uslubi va texnikasi:	vizual ma‘ruza, blits-so‘rov, bayon qilish, klaster, “BBB” texnikasi
O‘qitish vositalari:	ma‘ruzalar matni, E-board, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar
O‘qitish shakli:	jamoa va guruh bo‘lib ishlash
O‘qitish shart-sharoiti:	elektron doska bilan jihozlangan xona

MA‘RUZA MASHG‘ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	O‘qituvchi	Talaba
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish. 10 daqiqa	O‘qituvchi mashg‘ulot mavzusini e‘lon qiladi. Dars maqsadini aniq tushuntiradi, har bir bosqich uchun ajratilgan vaqt hajmini aniqlaydi, darsdan kutilayotgan natijalarni eslatadi.	Talabalar mashg‘ulot mavzusi hamda bosqichlari, qoidalari, kutilayotgan natijalarni aniq tushunib oladilar. Jamoaviy ta‘limiy faoliyatga tayyor bo‘ladilar, mavzuga nisbatan qiziqish shakllanadi.
2-bosqich. Asosiy bosqich. 55 daqiqa	Ma‘ruza mashg‘uloti rejasi va tuzilishiga muvofiq ta‘lim jarayonini tashkil qiladi. Adib, shoir, adabiy jarayon	Mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha nimalarni bilishlari, nimalarni bilishni istashlari aniqlashtirib olinadi va bunda jadvalning 3-

	<p>tushunchasi bilan tanishtiradi. XX asr o'zbek adabiyotiga xos xususiyatlarni tushuntiradi. Badiiy matnni baholash usullarini izohlaydi. (ma'ruza matni tayanch o'quv axborotida keltiriladi). Ma'ruzani bayon qilish davomida interfaol o'qitish usullarini qo'llash orqali talabalarni faollashtirishga erishadi, talabalarga muammoli savollar bilan murojaat qiladi.</p>	<p>ustuni darsning yakuniy bosqichida to'ldiriladi. Talabalarda ta'limiy faoliyatga nisbatan motivatsiya rivojlanadi, o'qubilish faoliyatlari to'g'ri rejalashtiriladi. Ularda ta'limiy maqsadlar asosida hamkorlikda ishlash, izlanish ko'nikmalari tarkib topadi. Talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollarga shaxsiy fikr, nuqtai nazarlaridan kelib chiqqan holda erkin fikr bildiradilar. O'rganayotgan muammo yuzasidan shaxsiy fikr, munosabat tarkib topadi, talabalar faollashadi. Taqdimotda keltirilayotgan ma'ruza matnini tezislar shaklida yozib oladilar. Talabalar faol hamkorlikda ta'lim olishni o'rganadilar, ularda onglilik va mas'uliyatlilik kabi kasbiy sifatlar shakllanadi. Refleksiya bosqichida talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollar xususida fikrlaydilar, o'z nuqtai nazarlarini bildiradilar.</p>
<p>3-yakuniy bosqich. 10 daqiqa</p>	<p>Talabalar tomonidan ma'ruzada keltirilgan o'quv axborotining o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida mavzuga oid kichik esse yozish topshirig'i beriladi. Ilmiy axborot muhokama qilinadi.</p>	<p>Ilmiy axborot yozishda faol ishtirok etadilar.</p>
<p>Mustaqil ta'lim uchun topshiriq. 5 daqiqa</p>	<p>Ma'ruzani mustahkamlashga doir savollar berib, talabalarning qanchalik tushunganliklarini aniqlaydi.</p>	<p>Mavzu to'liq o'zlashtirish uchun qo'shimcha adabiyotlarni aniqlaydilar.</p>

VII. KURS YUZASIDAN MASHG‘ULOTLAR VA MUSTAQIL TA’LIM YUZASIDAN KO‘RSATMALAR

O‘qitishda kasbiy yo‘naltirilganlikni amalga oshirishdagi faoliyat.

Ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash yuzasidan o‘qituvchining amaliy faoliyati quyidagi bosqichlar:

– innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o‘zlashtirgan holda uni pedagogik amaliyotda qo‘llash yo‘llarini belgilash;

– innovatsion texnologiyalar talablari asosida ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalash;

– o‘qitishning barcha shakllari: ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar, mustaqil ta’limning didaktik maqsadlarini e’tiborga olgan holda innovatsion texnologiyalarni tanlash va joriy etish;

– o‘qitishning asosiy shakllari bo‘lgan ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida o‘rganiladigan mavzuni mazmunini e’tiborga olgan holda axborot-kommunikatsion va pedagogik innovatsiyalarni uyg‘unlashtirish va amalda qo‘llash;

– mazkur jarayondan olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalaridagi bo‘shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilashdan iborat.

Ta’lim tizimida interfaol ta’lim texnologiyalarining quyidagi shakllar mavjud:



Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi:

1. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra: pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.
2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.
3. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.
4. Kelib chiqish manbasiga ko'ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish.

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact” (rus tilida “interaktiv”) “inter” – o'zaro, ikki taraflama, “act” – *harakat qilmoq, ish ko'rmoq* kabi ma'nolarni anglatadi.

Interfaol ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim hisoblanadi.

Interfaollik ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir.

Mantiqiy nuqtayi nazardan, interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyat olib borishlarini ifodalaydi.

An'anaviy ta'limda ham, tabiiy ravishda, suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida talaba (magistrant)larga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish talabagagina xos bo'lib, talaba (magistrant)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda, ruxsat etilganidagina so'zlashdan iboratdir.


Interfaol ta'limning asosiy belgilari



Interfaol ta'limning asosiy belgilari



Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limning quyidagi eng ommaviy texnologiyalari qo'llanilmoqda:



Keyingi yillarda ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosiy o'rinni egallamoqda. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim *shaxsga yo'naltirilgan ta'lim* deb nomlanadi. Ushbu ta'lim pedagog va magistrant o'rtasidagi o'zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanib, magistrantning qadriyat sifatida e'tirof etilishi uchun sharoit yaratadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining quyidagi turlari farqlanadi: 1.Modulli ta'lim texnologiyasi. 2.Muammoli ta'lim texnologiyasi. 3.Interfaol ta'lim texnologiyasi. 4.Individual ta'lim texnologiyasi. 5.Masofaviy ta'lim texnologiyasi. 6.Kompyuter ta'lim texnologiyasi. 7.Hamkorlik ta'lim texnologiyasi. 8.Loyiha ta'lim texnologiyasi. 9.Dasturiy ta'lim texnologiyasi.

10.Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasi. 11.Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi. 12.O'yin texnologiyalari. 13.Gender ta'lim texnologiyasi. 14.Quvvatni tejovchi ta'lim texnologiyasi.

Mazkur ta'lim texnologiyalaridan *modulli ta'lim, muammoli ta'lim va interfaol ta'lim texnologiyalarini* faol qo'llash tavsiya qilinadi.

Ta'lim jarayonida faol qo'llanayotgan innovatsion texnologiyalardan biri **keys** stadi hisoblanadi. Keys texnologiyasi bugungi kungacha asosan iqtisod va huquq sohalarida qo'llab kelingan. Hozirgi kunda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda foydalanish ham ta'lim samaradorligini oshirishi e'tirof etilmoqda.

Keys-stadi – (inglizcha *case – to'plam, aniq vaziyat, study – ta'lim*) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzidagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan haqiqiy yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning tahlil etilishiga asoslanadigan o'qitish metodi.

Keys-stadi usuli qo'llaniladigan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi Ishlar bosqichi va mazmuni

Ishlar bosqichi va mazmuni	Faoliyat	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
Tayyorgarlik	Tanishish uchun talabalarga keys materiallarini tayyorlaydi va avvalgi mashg'ulotlarda tarqatadi.	Keys mazmuni bilan tanishadilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. (5 daq.)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni olib borish rejasi bilan tanishtiradi. Keys ahamiyatini va uni kasbiy bilimlarni rivojlanishiga ta'sirini tushuntiradi.	Diqqat qiladilar.
2-bosqich. Bilimlarni Faollashtirish (10 daq.)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida mavzuning asosiy tushun-chalari bo'yicha tezkor-so'rov o'tkazadi (ilova). 2.2. Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi, baholash ko'rsatkich va mezonlari bilan tanishtiradi (ilova).	Savollarga javob beradilar. Muhokama qiladilar, aniqlash tiruvchi savollar beradilar.
3-bosqich. Alohida ishlash. (20 daq.)	3.1. Keys materiallarini muhokama qilishni tashkillashtiradi, ishlash qoidasi, vaziyatlarni tahlil qilish chizmasi, muammolarning ifodalanishiga e'tibor berishlariga qaratadi. 3.2. Vaziyatni mustaqil tahlil qilishni, muammoni ifodalashni, yechish yo'llarini aniqlashni, so'ngra uni yechish topshirig'ini beradi	Keys materiallarini muhokama qiladilar, aniqlaydilar, savollar beradilar. Mustaqil ravishda tahlil qilish varag'ini to'ldiradilar,

		muammoni yechadilar.
4-bosqich. Kichik guruhlarda ishlash (20 daq.)	4.1. Talabalarni kichik guruhlarga bo‘ladi va topshiriq beradi: vaziyatni muhokama qilish va tahlil qilib ko‘rish, guruh uchun vaziyatni tahlil qilish varag‘ini to‘ldirish, yechish tartibini ishlab chiqish, topshiriqni yechish, taqdimotga tayyorlanish	Keysni yechish va taqdimot varag‘ini tayyorlash bo‘yicha harakatlar qiladilar
5-bosqich. Taqdimot (20 daq.)	5.1. Taqdimot, muhokama va guruhlar taqdimotini o‘zaro baholashni tashkillashtiradi. Javoblarni sharhlaydi, tahlil qilish va muammoli vaziyatni yechish jarayonida qilingan xulosalarga e‘tibor qaratadi.	Guruhlar taqdimot qiladilar. Boshqa talabalar munozarada ishtirok etadilar, savollar beradilar

KONSEPTUAL JADVAL

O‘rganilayotgan tushuncha, hodisa, fikrni uch va undan ortiq jihat va ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqqoslashni ta‘minlaydi hamda yaxshi samara beradi. Tizimli fikrlashga o‘rgatish, muammoni tahlil qilish, ma‘lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘rganilayotgan hodisalarning muhim belgilarini aniqlash, tadqiqot yo‘nalishini belgilash, internetda axborot qidirish uchun tayanch so‘z va iboralarni tanlash maqsadlarida tuziladi.

Jadval quyidagicha tuziladi: gorizontal bo‘yicha taqqoslanadigan tushunchalar, vertikal bo‘yicha esa, ularning taqqoslanadigan turli jihat va xossalari joylashtiriladi.

Konseptual jadvalda o‘zlashtirilayotgan o‘quv materialining ancha qismi ixcham shaklda ifodalanadi. Bunday jadval mashg‘ulotning metodik ta‘minotini yanada boyitadi. Muayyan matn bo‘yicha konseptual jadvallarni mikroguruhlarda aqliy hujumdan foydalanib tuzish va ularni guruh bo‘yicha muhokama qilib, eng maqbul variantini qabul qilish amaliy mashg‘ulotlarning “anglash” fazasida yaxshi natija berishi mumkin. Konseptual jadval yordamida bir necha kasb yoki mutaxassisliklarni taqqoslash ham mumkin. Dars davomida o‘tkazilayotgan munozara davomida talabalarga konseptual jadval tuzish topshirig‘ini berish tavsiya etiladi. Bunday jadval tuzishni uyga vazifa qilib berish esa talabalarning mustaqil bilish faoliyati yanada samarali bo‘lishini ta‘minlaydi.

Fakultativ o‘quv kursini o‘qitishda **slaydlar, video, multivideo, qisqa metrajli hujjatli filmlardan** foydalanish mumkin. Shuningdek, o‘qitishning **an’anaviy va ilg‘or usullarini, shuningdek, o‘qitishning an’anaviy va ilg‘or uslublarini, jumladan, ekspress so‘rovlar, test so‘rovlari, dasturiy o‘qitish, davra suhbatlarini o‘tkazish, muammoli o‘qitish texnik vositalarini qo‘llash, ekskursiya** va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlari ma'ruza, muloqot, munozara, taqdimot tarzida tashkil etiladi. Ushbu mashg'ulotlarni quyidagi algoritm (bilish, qo'llash, tahlil qilish va natija) asosida amalga oshiriladi.

Talabalarga fakultativ o'quv kursini zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimni mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- “Aqliy hujum”, “Debatlar” “Reynstorming”, “Klaster” (axborotni yig'ish), “Sinkveyn” (axborotni yig'ish, “Akvarium”, “Charxpalak”, “G'oyalar bahsi”, “Matbuot-konferensiyasi” kabi yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish.
- Talabalarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish.
- Talabalarning kichik guruhlarga bo'lib, murabbiy-ustozlar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish.
- ma'ruza matnidagi jadval diagramma va raqamli ma'lumotlarni oldindan tayyorlab, guruh talabalariga tarqatish. (Bu usul o'qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha yozishdan ozod qiladi).
- Test savollari tuzish.
- “Tayanch” iboralarni ishlab chiqib, talabalarga ularni mukammal o'zlashtirishda ko'maklashish.
- talabalarni zamonaviy kompyuter dasturlari asosida tayyorlangan slaydlar bilan ko'rgazmali ma'ruza qilishga o'rgatish kabi usullardan foydalanish mumkin.

MUSTAQIL TA'LIMNI AMALGA OSHIRISH

Talaba mustaqil tayyorlanganda fakulteti, o'quv kursi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- tarqatma materiallar bo'yicha fakultativ o'quv kurs mavzularni o'zlashtirish. Bunda o'qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo'ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir mavzu bo'yicha 3-5 sahifa bo'lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.
- O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Bu usul mashg'ulotlar hamda mustaqil ishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'llanilishi mumkin.
- O'z-o'zini baholash orqali bilimni uzluksiz nazorat qilish. Talaba maxsus formula yordamida o'z bilimni o'zi baholaydi va maxsus nazorat daftarlariga qayd etib boradi.
- Fakultativ o'quv mavzulari bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, qo'shimcha adabiyotlar ishlash hamda ularni o'rganish;
- Talabalarning mustaqil ta'lim va taqdimot bilan bog'liq holda fakultativ o'quv kursining muayyan mavzularni chuqur o'rganish. Mustaqil ishning bu shakli barcha semestr talabalariga tavsiya etiladi.
- Internet materiallari.
- Audio manbalar.

- Axborot-resurs markazlaridagi mavjud davriy matbuot materiallari.
- Avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash. Bu mashg‘ulotlar talabning bilimlarini yanada mustahkamlaydi, tafakkurini boyitadi

TAQDIMOTLARNI AMALGA OSHIRISH

Taqdimotlar fakultativ o‘quv kursda olingan bilim, malaka va ko‘nikmaning amalda qo‘llanilishi, ya’ni yangi shaxs madaniyati tarziga aylanganligi darajasini ko‘rsatuvchi indikator vazifasini o‘taydi. Taqdimotlar o‘quv taqvimiy rejada ko‘rsatilgan mavzular doirasida tavsiya etilgan mavzularga bag‘ishlanadi. Talabning mavzuni tanlashiga imkon beriladi.

Taqdimotga tayyorlanish jarayonida talabaga quyidagi tavsiyalar va ko‘mak beriladi:

- fakultativ o‘quv kursi mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qo‘shimcha adabiyotlar ustida ishlash hamda ularni o‘rganish.
- internet materiallarini topish va unumli foydalanish;
- audivizual manbalardan foydalanish;
- axborot resurslari markazidagi mavjud davriy matbuot materiallaridan foydalanish.
-

TAVSIYA ETILADIGAN TAQDIMOT MAVZULARI

1. Maqsud Shayxzoda hayot yo‘li.
2. Shayxzoda va o‘zbek adabiyoti vakillari.
3. Shayxzodaning o‘zbek tilida yozgan ilk asarlari.
4. Shayxzoda she‘rlarida Vatan obrazi talqini.
5. Shayxzoda she‘rlarida tasviriy vositalarning qo‘llanishi.
6. 30-50-yillarda Shayxzoda hayoti.
7. “Toshkentnoma” dostonining badiiy xususiyatlari.
8. Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi.
9. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida tarixiy qahramonlar obrazlari talqini.
10. Shayxzoda she‘rlaridagi ritorik so‘roq va anaforalarning original namunalarini keltiring.
11. Shayxzodaning ilmiy qarashlari va ilmiy asarlari.
11. Shayxzoda publitsis sifatida.
12. Maqsud Shayxzoda – mohir mutarjim.

VIII. FAKULTATIV KURS MAVZULARINING QISQACHA MAZMUNI MA‘RUZALAR

Birinchi mashg‘ulot: Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi

O‘tkazish shakli: ma’ruza.

O‘qituvchi talabalarni Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi bilan aloqador eng muhim va asosli ma’lumotlar bilan tanishtiradi.

Maqsud Ma’sumbek o‘g‘li Shayxzoda 1908-yil 25-oktabr (yangi hisob bo‘yicha 7-noyabr) kuni Ozarbayjon she’riyatining otasi Nizomiy tug‘ilgan Ganja viloyatidagi Oqtosh shahrida taraqqiyparvar ziyoli-shifokor oilasida dunyoga kelgan, - deb yozib kelinar edi. Endilikda adabiyotshunos N.Karimov topgan hujjatlardan aniq ma’lum bo‘lishicha, Maqsud Shayxzoda Ganjada emas, balki Gruziya Respublikasining poytaxti Tiflis (hozirgi Tbilisi) shahrida dunyoga kelgan. Shoirning o‘zi tug‘ilgan joyi Ganja hisoblanishini xohlagani uchun barcha manbalarda shunday yozilib ketgan ekan.

Shoir hayoti va ijodini o‘rganishning ahamiyatini bugungi milliy g‘oya va mafkura negizida tushuntirib o‘tadi.

(Shu o‘rinda shoir hayoti va ijodini yoritishga oid multimedia materiallari namoyish etiladi)

Interfaol metod

Mazkur mashg‘ulotda o‘qituvchi Didaktik o‘yin texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o‘qituvchining kirish so‘z bilan ochiladi. U kirish so‘zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi shoir hayoti va ijodini o‘rganishning muhim jihatlarini yoritish, mustaqil tahlil qilish, shoir faoliyati va qarashlarining keng targ‘ib etilishi va o‘rganilishi masalalariga bag‘ishlanishi, konferensiyada faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san’at va davlat arboblari, soha mutaxassislari, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muhbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

“Matbuot konferensiyasi”da muhbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumkin:

1. Maqsud Shayxzoda biografiyasi.
2. Maqsud Shayxzoda – she’riyati.
3. Ijodkor dunyoqarashi.

Qo‘llash: tarixiy haqiqatni to‘g‘ri anglab yetishda, shoir faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini belgilab olishda hamda “O‘zbek adabiyoti tanqidi”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Milliy matbuot”, “Yangi o‘zbek adabiyoti” fanlarining tegishli mavzularida qo‘llash mumkin.

Natija: Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi. Shoir hayotini o‘rganishning maqsad va mohiyatidan hamda mamlakatimizda san’at va adabiyot sohasida amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlaridan xabardor bo‘ladi. Talabada o‘zbek adabiyoti, yaratilgan asarilarni xolisona baholash ko‘nikmalari paydo bo‘ladi.

Tayanch tushunchalar: talant, xolis, haqiqat, ijodkor, badiiyat, she'riyat, iste'dod, e'tiqod.

Ikkinchi mashg'ulot: Maqsud Shayxzodaning ilk ijod namunalari
O'tkazish shakli: ma'ruza.

O'qituvchi shoirning ijodiy faoliyati xususidagi ma'lumotlarni yetkazadi. O'z davrining taraqqiyparvar pedagogi, Shayxzodaning birinchi muallimi Muxtor Afandizoda ta'sirida 1919-yilda yozilgan bu satrlar shoir butun umri davomida amal qilgan hikmatga aylanib qoladi. Dastlabki jo'ngina mashqida ko'ringan bu xususiyat, ya'ni she'rda purhikmat ma'nolar ifodalashga intilish keyinchalik shoir ijodiga bitmas-tuganmas joziba bahsh etgan falsafiy teranlikdek go'zal fazilatni to'ldirgan bo'lsa ajab emas. Xuddi shu yillarda havaskor shoirning matbuotda bosishga loyiq "Girmizi askar nag'masi", ya'ni "Qizil askar qo'shig'i" nomli quyidagi she'ri maydonga kelgan:

*Qizil o'rdu nomimiz,
Yigitdir unvonimiz.
Mazlumlar ko'p jang qilgan,
Halol bo'lsin qonimiz.*

*Bayrog'imiz, shonimiz,
Usmonli unvonimiz.
Vatan- bizning jonimiz,
Halol bo'lsin qonimiz.*

Bu mashq maktabda Ozarbayjon xalqining mashhur farzandi Narimon Narimonov bilan bo'lgan uchrashuvda o'qilgan. Uni eshitgan Narimon Narimonov havaskor shoirni quchoqlab o'pgan va she'rini olib ketib, Bokuda chiqadigan "Kommunist" gazetasining 1921-yil 12-dekabr sonida nashr ettirgan. Shu tariqa mazkur mashq Maqsud Shayxzodaning respublika matbuotida bosilgan birinchi she'ri bo'lib qolgan.

(Shu o'rinda shoir asarlari yoritilgan multimedia materiallari namoyish etiladi)

Interfaol metod

Yoshlar uch guruhga bo'linib, 1-guruh pedagog, 2-guruh ta'lim oluvchi, 3-guruh esa kuzatuvchi mansub vakillar sifatida ishtirok etishadi. Mashg'ulot davomida olingan tushunchalar asosida milliy tanqidchilikning ilk ko'rinishlari, o'qitish tizimi, ta'limdagi islohotlar xususida fikr yuritishadi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag'batlantiriladi.

Qo'llash: san'atshunos, adabiyotshunoslar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg'ulot olib boriladi.

Natija: shoirning ilk she'rlari, ilk ijo namunalari, ularning keying ijob namunalaridan farqli jihatlari, asarlarining o'ziga xosligi, shoir ijodining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, ahamiyatini tushunib yetadilar.

Tayanch iboralar: asar, dunyoqarash, taqriz, poeziya, nasr, iste'dod, shoir.

Uchinchi mashg'ulot: 20-yillarning oxirlarida Maqsud Shayxzoda hayotida ijtimoiy-siyosiy holatning tutgan o'rni

O'tkazish shakli: ma'ruza.

O'qituvchi talabalarni 20-yillarning oxirlarida ijtimoiy-siyosiy holatning Maqsud Shayxzoda hayotida tutgan o'rni va shoirning ijodiy faoliyati biln tanishtiradi. 20-yillarning oxirlarida boshqa mintaqalardagi kabi Ozarbayjonda ham sho'ro hokimiyati millatchilarga, aksilinqilobchilarga qarshi kurash niqobi ostida millatparvar ziyolilarga, ilg'or fikrli kishilarga qarshi qatag'onni avj oldirgan edi. Buning oqibatida Shayxzodaning otasi Ma'sumbek ham aksilsho'roviy unsur sifatida qamoqqa olinadi, o'zi ta'qib etiladi. O'z yurtidan surgun qilingan bo'lajak shoir jon saqlash uchun Ozarbayjondan chiqib ketishga majbur bo'ladi. 1928-yilda u Toshkentga ko'chib keladi va umrining oxirigacha shu yerda qolib ketadi. "1928-yildan e'tiboran mening faoliyatim O'zbekiston bilan bog'landi, - deb xotirlaydi shoirning o'zi. "Toshkentda pedagogika institutini sirtidan bitirdim, 1936-yilda esa aspiranturani tugatdim. 1928-yilda Toshkentda Ozarbayjonliklar uchun ochilgan Narimonov nomli maktabda muallimlik qildim" ("Fan va turmush", 1988, 11-son, 12-bet).

Sho'ro hukumati Shayxzodani O'zbekistonda ham ta'qib va tahqirlardan benasib qoldirgani yo'q. Bu haqda shoir umrining poyonida shunday deb yozgan edi:

*Ammo tole' meni doim erkalamadi,
Ba'zan zamon yilni yilga hech ulamadi.
Sahrolarga duch keldimki, na irmoq, na ko'l,
Surgunlarga yuborildim, na ufq, na yo'l.*

(Shu o'rinda Maqsud Shayxzoda va o'zbek she'riyati mavzusidagi multimedia materiallari namoyish etiladi)

Interfaol metod

O'qituvchi yoshlarga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi.

Vazifa. Shoir publitsitikasi qanday g'oyalarni aks ettirgan? savoli bo'yicha quyida fikrlaringizni bayon eting?

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating;

M – ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U – fikringizni umulashtiring.

Yoshlarning o'zlarini yozgan fikrlarini o'qib himoya qilishlari so'raladi. Bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga, bahslashish madaniyatini o'rgatadi. O'qituvchi esa ularning fikrlarini to'g'ri yo'naltirish orqali mavzuni to'g'ri anglashlariga harakat qiladi.

Qo'llash: adabiyotshunos, jurnalist, tarixchi mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg'ulot olib boriladi.

Natija: yoshlarda shoirning publitsist, noshir sifatidagi faoliyati haqida tushuncha va tasavvurlar shakllanadi. Shoirning milliy matbuotimiz rivojiga qo'shgan ulushi, maqola va xabarlarining qanday maqsadlarga xizmat qilganligi, tashqi davriy nashrlardagi ishtiroki masalalarini tahlil etadilar. Shoir adabiyot, madaniyat, matbuot, taraqqiyot haqidagi fikrlarining bugungi kunda ham naqadar dolzarbligini anglab yetadilar.

Tayanch tushunchalar: matbuot, sho'ro, millatchilik, hokimiyat, ziddiyat, shoir, ijodiy faoliyat.

To'rtinchi mashg'ulot: Maqsud Shayxzodaning she'riy to'plamlari.

O'tkazish shakli: ma'ruza.

O'qituvchi talabalarga Maqsud Shayxzodaning siyosiy-ijtimoiy qarashlari va ularning milliy g'oya targ'ibotidagi o'rni haqida tushuncha beradi. Birin-ketin yosh shoir Shayxzodaning o'zbek tilidagi she'riy kitoblari nashr etiladi. Ular jumlasiga "Loyiq soqchi" (1932), "O'n she'r", "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934), "Jumhuriyat" (1935), "O'n ikki", "Yangi devon" (1937), "Saylov qo'shiqlari" (1938) she'riy to'plamlari kiradi. Shayxzoda ijodining ilk davriga mansub bo'lgan to'plamlar ham ko'p jihatdan g'o'r, anchagina nuqsonlarga ega edi. Shoir biror ma'lum-mashhur fikrni eslardida, uni vaznga solib, qofiyalab bayon qilardi. Ularda shoirning o'zi kashf etgan haqiqatlar kam bo'lib, joriy siyosat aqidalarini qo'llab quvvatlash ishtiyoqi kuchli edi. U paytlarda ko'pchilik sho'ro shoirlari birinchi navbatda she'riyatning g'oyaviy mohiyatiga, ijtimoiy mazmun teranligiga ko'proq e'tibor berar edilar. Shayxzoda ham ularga ergashib, shoirni hayot qurilishining askari, she'riyatni esa yangi dunyo barpo etishning muhim quroli deb hisoblaydi. Jumladan, 1932 yili bitilgan "Sinoqli kunlar" she'rida Shayxzoda shunday deb yozgan edi:

*Men dunyoda bo'lmadim ishq shoiri
Birida «yasha-yasha», birida «go'zal pari»,
Ikki daftar yozaturgan shoir-poir emasman,
She'rda ko'zbo'yovchilik o'chirilsin dillardan.*

(Shu o'rinda Maqsud Shayxzodaning she'riy to'plamlari mavzusidagi multimedia materiallari namoyish etiladi).

Interfaol metod

Yoshlar 2 guruhga bo'linadilar. 1-guruh Shoirning siyosiy-huquqiy mavzudagi maqolalarini, 2-guruh tanqidchining milliy o'zlik, qadriyatlar xususidagi qarashlarini tahlil etadilar. Mashg'ulot jarayonida olingan tushuncha va ma'lumotlar asosida to'g'ri va noto'g'ri fikrlash holatlari ko'rsatib beriladi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag'batlantiriladi.

Qo'llash: talabalarni shoir siyosiy-ijtimoiy tafakkuri bilan tanishtirish, shoirning she'riy to'plamlari, undagi she'rlarning shakl va mazmun xususiyatlari, ijodkor tafakkuri va fikrlar qamrovi, tuyg'ular ifodasi kabi tushunchalarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Unda jurnalistika, tarix, milliy uyg'onish sohasi mutaxassislarining fikrlari ham ahamiyatli.

Natija: Shoir she'rlarning shakl va mazmun xususiyatlari, ijodkor tafakkuri va fikrlar qamrovi, tuyg'ular ifodasi kabi tushunchalarni tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishadi.

Tayanch tushunchalar: she'riyat, iste'dod, tabiat, ijodning ilk davri, she'riy to'plam, nashr, adabiyot.

MULOQOTLAR

Birinchi mashg'ulot: 30-yillarda Shayxzodaning ijodiy faoliyati

O'tkazish shakli: muloqot.

30-yillarga kelib, Shayxzoda shoirlik g'oyat murakkab va mas'uliyatli san'at ekanini anglay boshlaydi. Shoir bu yumush iste'doddan tashqari mashaqqatli mehnat, chuqur bilim, faqat timsollar orqali fikrlash emas, mutafakkir kabi umumlashtirish qobiliyatini ham talab etishiga amin bo'ladi. Endi shoir she'rlarida tavsifiylik va bayonchilikdan qochib, oddiy inson obrazini yaratishga, uning turfa xil tuyg'ularini, hislarini ifodalashga, ma'naviy dunyosini ochishga e'tiborini kuchaytiradi. U o'z she'rlarida rus mumtoz poeziyasidan, ayniqsa, V.V.Mayakovskiy ijodidan ta'sirlanib, o'zbek adabiyotida birinchilar qatorida erkin vazni qo'llay boshlaydi hamda g'arb va sharq she'riyati an'analarini chambarchas chatishtirib yuborishga muvaffaq bo'ladi. Natijada, hayotda erishilayotgan yutuqlar, o'lkamizning go'zal tabiati, oddiy odamlarning kundalik tashvishlari, mehnati va muhabbati masalalari Shayxzoda she'riyatidan katta o'rin ola boshlaydi. Ayniqsa, Shayxzoda o'zbek kishisining boy ma'naviy dunyosini o'ziga xos, takrorlanmas ranglarda ochib berishga intiladi. Uning she'rlarida jo'shqin publitsistik ruh falsafiy teranlik bilan qo'shila boradi. Dastlabki to'plamlarga kirgan she'rlarining aksariyati davr va siyosat bilan bog'langanligi, zamon ruhi ufurib turganligi, qofiya hamda vaznda g'alizliklar borligiga ko'ra ajralib turar edi. Bunga iqror bo'lmoq uchun "Jumhuriyat" she'ridan quyidagi misralarni o'qish kifoya:

*Burjua oynagidan ko'zing albatta
Sayr etarkan, rostlikni qoldirdi chetda,
Biz yasagan inqilob kurradan katta...
Sevgili jumhuriyat oltin kabi joy,
Eng ulug' boyonlardan ming marta biz boy.*

Interfaol metod

Mashg'ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Munozarali dars" metodi asosida o'tkaziladi. Mashg'ulot o'qituvchining kirish so'zi bilan ochiladi. O'qituvchining kirish so'zi tugagandan so'ng "Munozarali dars"ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.
2. Jamoa o'ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma'noni anglatishi kerak)
3. Har bir jamoa o'zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo'shimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.
4. Baholashda jamoa a'zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta'kidlanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo'shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalarga quyidagi savollar beriladi:

- 1-jamoaga. Maqsud Shayxzoda she'riyatiga xos xususiyatlarni aytib bering?
- 2-jamoaga. Maqsud Shayxzoda dostonlariga xos xususiyatlarni aytib bering?
- 3-jamoaga. Maqsud Shayxzoda dramalariga xos xususiyatlarni aytib bering?

Qo'llash: adabiyotshunos, shoir, dramaturg, ma'naviyat targ'ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: Shoirning adabiy tarixiy jarayondagi o'rni, asarni badiiylik me'zonlari nuqtai nazaridan baholash to'g'risida yangi bilimlarga ega bo'lishadi.

Tayanch tushunchalar: adabiyotshunos, yillar, tajriba, to'plamlar, timsollar, fikrlar, ifoda, mumtoz poeziya

Ikkinchi mashg'ulot: Ikkinchi jahon urushi davrida Shayxzoda ijodi.

O'tkazish shakli: muloqot.

Ikkinchi jahon urushi Shayxzoda uchun og'ir sinov yillari bo'ldi. Urushning dastlabki kunlaridanoq u butun ijodiy quvvatini, bilimini, tuyg'ularini dushman ustidan g'alabani tezlashtirish maqsadiga yo'naltirdi. Uning yolqinli publitsistik maqolalari, haroratli nutqlari, jo'shqin she'rlari, jangovar ocherklari va boshqa asarlari urush yillarida xalqimizga madad berishda, ruhini ko'tarishda, g'alabaga ilhomlantirishda katta xizmat qildi. Urush yillarida Shayxzodaning o'zbek tilida "Kurash nechun?", "Jang va qo'shiq", "Ko'ngil deydiki", rus tilida "Saaz", "Grozoyu rojdyonye", "Serdse govorit" kabi to'plamlari bosilib chiqadi. Maqsud

Shayxzodaning ijodiy izlanishlari urush yillari bir muncha yaxshi samaralar berdi. Shu yillari uning badiiy jihatdan muvaffaqiyatliroq asarlaridan “O‘n birlar”, “Jenya”, “Uchinchi o‘g‘il” dostonlari e‘lon qilinadi. Ularda shoir inson ruhiy dunyosiga chuqurroq kirishga va dushmanga nafrat hamda vatanga muhabbat tuyg‘ularini ta’sirchanroq shakllarda ifodalashga muvaffaq bo‘ladi. Huddi shunday ifodaning yorqin namunasi sifatida Shayxzodaning “Kurash nechun?” she’rini eslash kifoya:

*Ertaning iqboli kechadan bazo‘r
2Bu kundand kechamas erta tug‘ilur...
O‘g‘ri pachoqlangach, dermiz: “Bas, kurash!”
Zafarning nash‘asin totigan erlar:
“Erk desang, urushda yengib chiq”, -derlar!*

Interfaol metod

Mazkur mashg‘ulotda o‘qituvchi Didaktik o‘yin texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o‘qituvchining kirish so‘z bilan ochiladi. U kirish so‘zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi “Shoir va kitobxonlik” masalasini yoritish, shoir fidoyiliklarini e’tirof etish, kitobxonlik madaniyatini yoritish masalalariga bag‘ishlanishini qayd etadi. Konferensiyada adabiyotshunoslar, faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san‘at va davlat arboblari, soha mutaxassislari, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muhbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

“Matbuot konferensiyasi”da muhbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumki:

1. “Shoir va kitobxonlik” muloqtining asosiy maqsadi.
2. Shoirning she’rlarida davr ruhining aks etishi borasida so‘zlang.

Qo‘llash: tarixiy haqiqatni to‘g‘ri anglab yetishda, shoir faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini belgilab olishda hamda “O‘zbek adabiy tanqidi”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Milliy matbuot”, “Adabiyot nazariyasi”, “Yangi o‘zbek adabiyoti” fanlarining tegishli mavzulariga qo‘llash mumkin.

Natija: Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi. Shoir hayotini o‘rganishning maqsad va mohiyatidan hamda urush davrida shoir ijodining qirralari xususida xabardor bo‘ladi. Talabada shoir hurriyat yo‘lidagi jasoratini xolisona baholash ko‘nikmalari paydo bo‘ladi.

Tayanch tushunchalar: jang, tarixiy davr, urush yillari, ijodiy izlanishlar, kurash, dushman, Vatanga muhabbat.

MUNOZARALAR

Birinchi mashg‘ulot: “Toshkentnoma” dostoni.

O‘tkazish shakli: munozara.

Mashg‘ulot avvalida shoirning matbuot sohasiga kirib kelshida turtki bo‘lgan omillar, vaqtlı matbuotning ahamiyati masalalariga to‘xtalinadi. 1956-1967-yillar mobaynida Shayxzoda “Chorak asr devoni” nomi bilan tanlangan asarlarini, “Toshkentnoma” dostonini, “Yillar va yo‘llar”, “Xiyobon” to‘plamlarini e‘lon qiladi. Shoirning “Dunyo boqiy” turkumi adabiyotimizda katta voqea bo‘ldi. Bular-ning bari Shayxzoda ijodining so‘nggi bosqichi ancha barakali bo‘lganidan, shoir xalqning o‘sib borayotgan estetik ehtiyojlariga go‘zal asarlar bilan javob qaytarishga intilganidan dalolat beradi. Shayxzodaning bu davr she‘riyatidagi eng katta nuqsoni shundan iborat ediki, unda ritorika, bayonchilik, va‘zxonlik va madhiyabozlik butkul barham topmaydi. Shoir chinakam lirik tuyg‘ularini, ichki hislarini, original fikrlarini ifodalash o‘rniga, ko‘pincha, hammaga ma‘lum g‘oyalardan, timsollardan foydalanadi. Oqibatda chinakam lirika, haqiqiy poetik asar o‘rniga quruq madhiya, yuzaki tasvir paydo bo‘ladi. Masalan, “O‘zbek dengiziga” she‘rida shunday misralar bor:

*Qatrası ochadı gulning yuzını,
Uning bir yutumi qushlarga qanot,
Uning ariqlari boqqa jon berar,
Uning kanallari-dashtlarga hayot.*

Interfaol metod

Mashg‘ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Munozarali dars” metodi asosida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot o‘qituvchining kirish so‘zi bilan ochiladi. O‘qituvchining kirish so‘zi tugagandan so‘ng “Munozarali dars”ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagılardan iborat:

1. Guruh talabaları kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.
2. Jamoa o‘ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma‘noni anglatishi kerak)
3. Har bir jamoa o‘zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo‘shimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.
4. Baholashda jamoa a‘zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta‘kidlanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo‘shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalfrga quyidagi savollar beriladi:

- 1-jamoaga. Shayxzodaning falsafiy-ijtimoiy qarashlari.
- 2-jamoaga. Maqsud Shayxzoda – mohir tarjimon.
- 3-jamoaga. Shayxzoda she‘rlaridan keltirib badiiy tahlil qiling.

Qo‘llash: mashg‘ulot tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, ma‘naviyat targ‘ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: “Toshkentnoma” dostoni, uning badiiy xususiyatlari, shoir xalqning o‘sib borayotgan estetik ehtiyojlariga go‘zal asarlar bilan javob qaytarishga intilganidan dalolat berishi to‘g‘risida yangi bilimlarga ega bo‘lishadi.

Tayanch tushunchalar: doston, shahar, yurt, shoir, she‘r, iste‘dod, estetik ehtiyoj, bayonchili.

Ikkinchi mashg‘ulot: “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi
O‘tkazish shakli: munozara.

Ijodining yetuklik davrida, aniqrog‘i, 60-yillarda Shayxzoda o‘zining eng yirik asari bo‘lmish “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasini yaratadi. Unda Amir Temurning mashhur nabirasi Mirzo Ulug‘bek hayotining so‘nggi yillari jonlantirilgan bo‘lib, mana shu buyuk olim va fojiali taqdir egasi hisoblangan shohning siymosi, kurashlari, iztirobga to‘liq ruhiy kechinmalari, olamshumul fikrlari ta‘sirchan manzaralarda, ziddiyatlarda, urushlar girdobida, shekspirona bo‘yoqlarda gavdalantirilgan edi. Shayxzoda asarga asos qilib Ulug‘bekning so‘nggi ikki yillik hayoti va faoliyatini tanlab oladi. “Mirzo Ulug‘bek” bizni olis va notanish olamga - XV asr o‘rtalaridagi Samarqand muhitiga olib kiradi. Dramaturg bizni sulton saroyiga, gavjum bozorlarga boshlaydi, madrasalar hayoti bilan tanishtiradi. Biz bu olag‘ovur, serjanjal muhitda Abdulatif, Gavharshodbegim, Xo‘ja Ahror, Said Obid, Abbos, Ali Qushchi, Sakkokiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Qozi Miskin kabi tarixiy shaxslarga ro‘para kelamiz. Dramaturg birinchi navbatda Ulug‘bekning mutafakkir va olimlik xislatlarini ochishga, inson va olam haqidagi o‘ylarini ifodalashga intiladi:

*Sirlar betidagi niqobni yechmoq,
Ziddiyatlar ma‘nosini anglamoq, ochmoq
«Mutafakkir nazdida ulug‘ saodat»*

Interfaol metod

Mashg‘ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Insert texnikasi” metodi asosida o‘tkaziladi. Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi. O‘qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni talabalarga tarqatadi. Talabalarga individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

“V” – tanish ma'lumot.
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.
“Q” – bu ma'lumot men uchun yangilik.
“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?

Belgilangan vaqt yakunlangach, talabalar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

Natija: yoshlar ushbu asrni o'rganish davomida inson faqatgina moddiy boylik bilan yashay olmasligi, unda ma'naviy, jismoniy hamda ruhiy boylik ham bo'lishi lozimligini anglab yetadilar, asardagi fikrlar orqali o'sha davr ijtimoiy muhiti, insonlar dunyoqarashi, axloqi to'g'risida xulosalar chiqarishadi.

Tayanch tushunchalar: ijod, drama, tragediya, shaxs fojiasi, drammatizm, lirizm, tafakkur, ziddiyat, ijod.

TAQDIMOTLAR

Birinchi mashg'ulot: Shayxzodaning tanqidchilik va adabiyotshunoslik faoliyati.

O'tkazish shakli: taqdimot.

Deyarli butun ijodiy yo'li davomida Shayxzoda tanqid va adabiyotshunoslik bilan ham shug'ullandi. U 1948-yilda "Alisher Navoiyning lirik qahramoni" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, ulug' o'zbek shoiri ijodiga oid ko'plab ilmiy asarlar e'lon qilgan. Ular jumlasiga "Navoiyda lirik qahramon xarakteristikasiga doir" (1947), "Navoiyning badiiy uslubi haqida" (1958), "Ustodning san'atxonasida", "G'azal mulkinging sultoni" (1960) singari mazmundor maqolalari kiradi. Shayxzodaning Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa adiblar ijodi haqidagi tadqiqotlari ham katta ilmiy qiymatga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Shayxzodaning ilmiy-publitsistik, adabiy-tanqidiy asarlarida masalani atroflicha tekshirish, chuqur ildizlarini ochish, ijtimoiy mohiyatini yaqqol namoyon etish birinchi o'rinda turadi. Masalan, buni "Mayakovskiy va o'zbek sovet adabiyoti", "Shayx Ilyos Nizomiy Ganjaviy" yoki Alisher Navoiyning poetik mahorati hamda qisman Sharq she'riy texnikasiga bag'ishlangan turkum maqolalarida, "Qalam va burch", "She'riyatimizning yo'li va yangi kuylari haqida"gi tadqiqotlarida yaqqol ko'rish mumkin.

Qo'llash: mashg'ulot pedagog, tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, ma'naviyat targ'ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: Tanqidchilikda dolzarb mavzudagi maqolalarning ko'payishida shoirning jasorati, irodasini kuzatib, u yaratgan asarlar saviyasi xususida o'z bilimlarini oshirib boradilar.

Tayanch tushunchalar: millat fidoyisi, ma'rifat, ziyoli, risola, mahorat, ilmiy tadqiqot, maqola.

Ikkinchi mashg'ulot: Maqsud Shayxzoda – mutarjim.

O'tkazish shakli: taqdimot.

Taqdimotda Maqsud Shayxzodaning tarjimon sifatidagi faoliyati yoritib beriladi. Maqsud Shayxzoda dunyoning nafosatshunos, adabiyotshunos olimlari ishlarini sinchiklab o'rganib, ulardagi nazariy mulohazalarni o'zbek ziyolisiga yetkazish maqsadida tarjima qilishga qaror qiladi. Shayxzoda ijodining bir qismini badiiy tarjimalar tashkil qiladi. U A.S.Pushkinning "Mosart va Saleri" p'esasini, "Mis chavandoz" dostonini, M.Yu.Lermontov va N.A.Nekrasov she'rlarini, V.V.Mayakovskiy dostonlarini, Shota Rustaveli, Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Shekspir, Bayron, Gyote, Esxil, Ezop asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Demak, Maqsud Shayxzoda ko'p qirrali iste'dod sohibi va XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri darajasiga ko'tarildi. Shunga ko'ra uzoq yillar mobaynida uning ijodi tanqid va adabiyotshunoslik markazida bo'lib keldi. Xususan, Shayxzoda ijodi va alohida asarlari yuzasidan O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Karimov, I.G'afurov kabi tanqidchilar teran kuzatishlarga boy, mazmundor maqolalar e'lon qildilar. M.Zokirovning "Maqsud Shayxzoda", I.G'afurovning "O'rtoq shoir" kitoblari va O.Sharafiddinovning "Shoir qalbi dunyoni tinglar" nomli adabiy portretiga, T.Jalolovning «Yashasin tabassum» to'plamidagi tadqiqotiga tanqidchilikning Shayxzoda ijodini keng ko'lamda tadqiq etishga kirishganidan guvohlik beruvchi asarlar sifatida qarash o'rinli bo'ladi.

Qo'llash: badiiy tahlil asoslari, tarjima nazariyasi fanlarining amaliy mashg'ulotlarida qo'llash mumkin.

Natija: M.Shayxzoda tarjimalari badiiyati, mutarjimning jahon adabiyoti namunalariga bo'lgan qiziqishi, adabiyot nazariyasi, tanqidaga xos muammolarga o'zbek ziyolilarini jalb etishni maqsad qilganligini anglab yetadi.

Tayanch tushunchalar: badiiy adabiyot, tarjima, san'at, teatr, nazariya, tadqiqot, ilmiy manba, samara.

IX. O'QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR VA ELEKTRON RESURSLARI RO'YXATI

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Asarlar. Olti tomlik. -T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1969-1973.
2. Karimov N. Maqsud Shayxzoda. Ma'rifiy-biografik roman. -T., "Sharq" NMAK, 2010

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. -T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1969.
2. Olimjonova H. Fikr tog'lari. -T., "O'zbekiston", 1968.
3. G'afurov I. O'rtoq shoir. -T., "Yosh gvardiya", 1975.
4. Abdullaev O. She'riyatning tiniq osmoni. -T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1979.
5. Sharafiddinov O. Maqsud Shayxzoda. "Birinchi mo'jiza" kitobida. -T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1979.

6. Maqsud Shayxzoda zamondoshlar xotirasida. Maqolalar to‘plami. -T., G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 1978.
7. Adabiyot – hayot darsligi. -T., Adabiyot va san‘at. 1980.
8. Rasulov A. Maqsud Shayxzoda. -T., 1980.
9. Rasulov A. Iste‘dod va e‘tiqod. -T., 2000.
10. Rasulov A. Betakror o‘zlik. -T., 2009.
11. Sanjar Sodiq. Yangi o‘zbek adabiyoti. - T., 2020.

Elektron resurslar

12. www.ziyonet.uz
13. www.e-tarix.uz
14. www.ziyouz.com
15. www.qr.natlib.uz
16. www.media.natlib.uz
17. www.diss.natlib.uz